



BOSHLANG‘ICH SINIF TABIIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA GEOGRAFIK TUSHUNCHALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI

Shonazarova S.R.

*Termiz Pedagogika Instituti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, geografiya ta‘limi, didaktik imkoniyatlari, tabiiy fanlar, geografiyani o‘qitish jarayoni, amaliy metodologik muammolar, o‘qitish shakllari.

Ключевые слова: начальное образование, географическое образование, дидактические возможности, естественные науки, процесс преподавания географии, практические методические проблемы, формы обучения.

Key words: primary education, geography education, didactic possibilities, natural sciences, geography teaching process, practical methodological problems, teaching forms.

Kirish. Geografiya ta‘limi deganda o‘quvchilarga tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy komplekslarning tuzilishi va asosiy qonuniyatlari haqida bilimlar beradigan geografiya fanlari tizimiga aytiladi. Geografiya ta‘limi metodikasi esa umumta‘lim boslang‘ich maktab va kasb-hunar kollejlarida tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya va boshqa maxsus geografiya fanlarini o‘qitish jarayonini o‘rganadigan va pedagogika fanlari tizimiga kiradigan fandır. Geografiya ta‘limi metodikasi umumiy didaktika va tarbiya nazariyasi bilan chambarchas bog‘langan. Didaktika fani ta‘lim berish va tarbiya jarayonini umumiy qonuniyatlarini, ta‘lim mazmunini tadqiq qiladigan nazariy fandır.

Didaktika fani aniq o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi bilan shug‘ullanmaydi. Ayni vaqtda har bir o‘quv fani o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun alohida fanlarni o‘qitish metodikasi bilan hususiy didaktika fanlari shug‘ullanadi [79;23-b.]. Geografiya o‘qitish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari mavjud. Boshlang‘ich maktabda geografik tashunchalarni yo‘lga qo‘yishda quyidagi nazariy va amaliy metodologik muammolarni tadqiq qiladi:

boshlang‘ich maktabda geografik tashunchalarni tabiatshunoslik fani, tadqiqot usullari, rivojlanish tarixiga asoslanganligi;



tabiiy fanlarining maqsad va vazifalarini umumiy va alohida predmetlar bo'yicha aniqlash;

ta'lim va tarbiyaning birligini amalga oshirish.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich maktabda geografik tushunchalarni shakllantirishda geografiya o'qitish metodikasiga asoslangan manbalar ikkita katta qismdan iborat: umumiy va hususiy geografiya o'qitish metodikasi. Umumiy geografiya o'qitish metodikasi-bu geografiyaning didaktikasi hisoblanadi. U geografiya o'qitish jarayonini o'ziga xos xususiyatini o'rganadi[51;29-b.]. Geografiya o'qitishning umumiy metodikasi nazariy va metodik masalalarni ishlab chiqadi, yani fanni o'zini tadqiqot usullarini o'rganadi, bunda asosiy e'tibor o'quv-tarbiyaviy maqsadlarni ishlab chiqishga qaratiladi. Aniqlangan o'quv-tarbiyaviy maqsadlar asosida geografiya ta'limining mazmuni ishlab chiqiladi.

Unda umumiy metodika ikki qismga bo'linadi: -tabiiy geografiyani o'qitish metodikasi; -iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o'qitish metodikasi; Geografiya o'qitishning xususiy metodikasi-alohida o'quv fanlarini maqsad va vazifalarini ishlab chiqadi va umumnazariy holatlarni aniq o'quv fanlarini o'qitish jarayonida qo'llash masalalarini o'rganadi. Xususiy geografiya o'qitish metodikasi tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarini alohida fanlari bo'yicha o'quv tarbiyaviy jarayonlarni o'ziga xos xususiyatlarini ishlab chiqadi.

Xususiy geografiya o'qitish metodikasi geografiya fanlarini mazmuni uchun umumiy metodikaning nazariy ishlanmalarini aniqlashtiradi, har bir sinf geografiya kursini mazmuni va tuzilishi, boshlang'ich geografik tushunchalarni shakllantirish, o'quv ishlari usullarini, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tahlil qilish muammolarini ishlab chiqadi. O'qitish maqsadini aniqlash qadimdan didaktika va geografiya o'qitish metodikasining eng muhim muammolaridan hisoblanib kelmoqda. Ushbu muammoni qanday yechish maktab geografiyasining tuzilishi, mazmunini va o'qitish metodlarini turlari bilan bog'liq[57;24-b.].

XX asrdan boshlab o'qitish maqsadini ishlab chiqish muammosiga katta e'tibor berildi. Hozirgi davrda (XXI asr) ham geografiya ta'limining mazmunini o'zgarishi munosabati bilan mazkur muammoga yanada ko'proq e'tibor berilmoqda. Geografiya o'qitish metodikasi geografiya fan asoslari bilan bog'liq bo'lgan o'quv, jarayonlar, tamoyillar va qonuniyatlar to'g'risidagi fandir. Mazkur tamoyil va qonuniyatlarni bilish o'qituvchiga maktab geografiya kursi bilan bog'liq o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish imkonini beradi.

Geografiya o'qitish metodikasining obykti-mazkur o'quv fani bilan aloqador bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy jarayon. Geografiya o'qitish metodikasining predmeti-geografik ta'limning maqsadi, mazmuni, o'qitish usullari, shakllari, o'quvchilarning tarbiyasi va rivojlanishidir. Geografiya o'qitish metodikasining maqsadi-geografiya



o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etish[78;121-b.]. Geografiya o'qitish metodikasining vazifasi-geografiya o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etish. Shuningdek, geografiya o'qitish metodikasi quyidagilarni ham o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi:

bo'lajak o'qituvchilarga geografik o'quv fanlar bo'yicha chuqur va atroflicha bilim berish;

maktab geografiyasining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish;

boshlang'ich maktab geografiyasining mazmunini zamon talablariga mos ravishda yanada takomillashtirish;

boshlang'ich maktab geografiyasi mazmuni va tuzilishida zamonaviy fan yutuqlarini aks ettirish;

geografiya darslarini tuzilishi, o'lchamlari va turlarini yanada takomillashtirish;

geografiya o'qitishni yangi pedagogik va va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va amalda qo'llash;

geografik ekskursiyalar, tadqiqotlar o'tkazish texnologiyasini yanada takomillashtirish.

o'quvchilarning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishiga ko'mak beruvchi o'quv fanlar mazmunini, o'qitish shakllari, vositalari va metodlarini ishlab chiqishdan iborat. Geografiya o'qitish metodikasi boshlang'ich ta'limda o'quvchilar va o'qituvchilarni o'qitish nazariyasi va tarbiyasi bilan qurollantiradi.

Boshlang'ich ta'limda geografik tushunchalarni shakllantirishda qator tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy hamda gumanitar fanlar bilan o'zaro bog'langan. Boshlang'ich ta'limda geografik tushunchalarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

geografiya fani maktab geografiyasi mazmuni asosini tashkil qiladi va uning rivojlanishi uchun asos hisoblanadi;

geografiya fanining mazmuni maktab geografiyasining tuzilishida aks etgan[81;37-b.].

Hozirgi paytda maktab geografiyasida yangi-yangi tushunchalar paydo bo'lmoqda: ekologik-geografik sharoit; tizimli usul; geosiyosat: bashorat; baholash va hakazo. Didaktika barcha o'quv fanlari metodikasini umumiy ilmiy asosini tashkil qiladi. Geografiya ta'limi metodikasi didaktika fani tomonidan asoslab berilgan qonunyatlar, qonunlar va qoidalar asosida rivojlanadi.

Didaktika fani geografiya o'qitish jarayonini tarkibiy qismlari o'rtasidagi qonuniy bog'lanish va munosabatlarni oydinlashtiradi va shu asosida o'qitishni maqsadi, mazmuni, usullari hamda o'qitish jarayonini jihozlashga doir talablarni belgilab beradi. Geografiya o'qitish metodikasi fani didaktika faniga suyanibgina



qolmasdan balki uning rivojlanishi uchun muhim ma'lumotlar beradi. Masalan, o'quvchilarning geografik bilmi, ko'nikma va malakalarni baholash, geografik tasavvur, tushuncha, g'oyalar tizimini shakllantirish va boshqalar[84;9-b.].

Psixologiya fani o'quvchilardagi ruhiy faoliyatning umumiy qonunyatlarini o'rgansa, geografiya o'qitish metodikasi esa o'quvchilarning ruhiy faoliyatini, ularning geografik bilimlarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan tomonlarini o'rganadi. Geografiya fanini o'qitishda o'quvchilarning yoshi, bilimi, fikrlash qobiliyatini e'tiborga olmasdan turib, ularning o'quv faoliyatiga samarali ta'sir etib bo'lmaydi. Shu tufayli geografiya o'qitish metodikasi psixologiya fani bilan chambarchas bog'langan[83;11-b.].

Geografiya ta'limi metodikasi ekologiya fani bilan ham uzviy bog'langan. Maktab, akademik litsey va kasb hunar kollejlaridagi geografiya ta'limida atrof-muhit muhofazasiga va tabiiy resruslardan oqilona foydalanish masalalariga katta e'tibor berilgan. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursidan boshlab, umumiy o'rta ta'lim geografiya fanlarida tabiiy resruslardan oqilona foydalanish, tabiat tarkiblarini xo'jalik faoliyati ta'sirida ifloslanishi, ularni oldini olish va atrof-muhit muhofazasi masalalari atroflicha ko'rib chiqilgan[44;31-b.].

Boshlang'ich ta'limda geografik bilimlarning rivojlanishini, har bir materik va o'lkalarni tabiatni va uni o'zlashtirilish tarixini o'rganish tarixiy manbalarinrini o'rganish bilan bog'liq[52;28-b.]. Geografik nomlarni to'g'ri yozilishi, ularni talqini, kelib chiqishi va mazmunini aniqlashda tilshunoslik qonunyatleri va qoidalari asosida olib boriladi. Boshlang'ich maktab geografiyasida jahon, mamlakatlar va hududlarini o'rganishda, geografik qobiqni tarkibiy qismlari va undagi jarayonlarni o'quvchilarga tushuntirilishida badiiy adabiyotlardagi yorqin ifodalar, talqinlar va tavsiflardan foydalaniladi[63;9-b.].

Xulosa. Shuningdek, geografik qobiqning kimyoviy tarkibini, tabiatni kimyoviy modddalar bilan ifloslanishini va ularni oldini olish yo'llarini o'rganishda maktab geografiyasi kimyo fanining yutuqlariga asoslanadi. Geografik qobiqning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan tuproq, o'simlik qoplami, hayvonot dunyosini va turli xil ekinlarni yetishtirishni o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda maktab geografiyasi geografiya va qishloq xo'jaligi fanlari tizimi yutuqlariga asoslanadi. Geografiya ta'limida ma'lumotlarni umumlashtirish va tashkil qilishda, zamonaviy texnika vositalaridan foydalanishda boshlang'ich maktab geografiyasi va axborot texnologiyalari tabiatshunoslik fanlari yutuqlariga asoslanadi.

Hozirgi davrda geografiya ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar qo'llanilmoqda va ulardan foydalanishning ilmiy-metodologik asoslari ishlab chiqilmoqda. Mazkur sohada geografiya ta'limi innavasion pedagogik texnologiyalar fani yutuqlariga tayanadi[76;12-b.].



Bu hol, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida erkin fikrlash, mustaqil izlanishga rag'bat paydo qiladi. Bu shaklda uyushtirilgan ta'lim jarayoni qatnashchilari o'zaro bermalol tortishadilar, o'quv materialini buyurilganiday emas, balki o'zlari xohlaganiday erkin o'zlashtiradilar.

Adabiyotlar:

1. Таълимни ривожлантиришнинг фалсафий ва психологик муаммолари: Таълимни ривожлантириш назарияси ва амалиёти. М.:Интор, 1994.-128 б.
2. Маликова П.С. Мактаб ўқувчиларининг таълим фаолиятини шакллантириш (географияни ўқитиш мисолида). Илмий ва амалий қўлланма. Уфа: Баш.ГПИ, 1998.-120с.
3. Ахромов У.А. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. - Samarqand: SamDU nashri, 2002.-110 б.
4. Таълимни ривожлантириш тизимидаги дарс. (Иш тажрибасидан)/ эд. А.К. Дусавитский. Харьков: Психология ва ривожланиш таълим методикаси маркази, 1996. - 46 б.
5. Fozilov J., Sultonov R., Sodiqov X. "O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish" "Sharq" nashriyoti. Toshkent.- 2000 -102 б.
6. Риндина В.В.Бошлангич синфларда географияни ўқитиш учун методик тавсиялар. М.: ФНМТС им. Л.В.Занкова, 1998.- 88с.
7. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. T.: Fan. 384 б.
8. Ismatov I. O'quvchilarda Atrof muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish (anorganik kimyo misolida) Avtoref. diss.kand. ped. nauk. – Toshkent, 2006.- 23 б.
9. Понурова Г.А. Ўрта мактабда географияни ўқитишда муаммоли ёндашув. М.: Таълим, 1991.- 192 б.
10. Исмаатов И.Ш. Ўқувчиларда атроф-мухитга маъсулиятли муносабатни шакллантириш (анорганик кимё мисолида). Пед.фан.ном. диссер.автор.-Т. :-2006.-21б.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda geografik tushunchalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari, boshlang'ich maktab geografiasining mazmunini zamon talablariga mos ravishda yanada takomillashtirish, uning markaziy vazifasi ta'lim faoliyatini shakllantirish, umumta'lim maktablarida geografiyani o'qitish jarayonida maktab o'quvchilarining ta'lim faoliyati, geografiya o'qitishni yangi pedagogik va va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va amalda qo'llash, geografik ekskursiyalar, tadqiqotlar o'tkazish texnologiyasini yanada takomillashtirish, geografik ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются дидактические возможности формирования географических представлений в начальном образовании, дальнейшее совершенствование содержания географии начальной школы в соответствии с требованиями времени, ее центральной задачей является формирование учебной деятельности, воспитание школьников в Процесс преподавания географии в общеобразовательной школе. Рассмотрены образовательная деятельность, разработка и внедрение новых педагогических и информационных технологий преподавания географии, географических экскурсий, дальнейшее совершенствование технологии исследования, особенности содержания географического образования.

SUMMARY

In this article, the didactic possibilities of forming geographical concepts in primary education, the further improvement of the content of primary school geography in accordance with the requirements of the times, its central task is the formation of educational activities, the education of schoolchildren in the process of teaching geography in secondary schools. Educational activities, the development and implementation of new pedagogical and information technologies for teaching geography, geographical excursions, further improvement of research technology, specific features of the content of geographical education are discussed.